

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
UNIVERSITETI FARG'ONA FILIALI**

“Kompyuter injiniring” fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

“Operatsion tizimlari” fanidan

REFERAT

Bajardi:

Nazirov Z

2014 - Farg'ona

Mundarija

I. KIRISH	3
II . ASOSIY QISM.....	6
1. WINDOWS ning yaratilish tarixi.....	6
2. WINDOWS ning imkoniyatlari.....	7
3. WINDOWS ning ishlash shartlari.....	8
4. Arxivatorlar va fayllarni arxivlash..	9
5. Fayllarni arxivlash va arxiv fayllarni ochish.....	11
6. WINRAR arxivatorining xususiyatlari.....	13
7. WINRAR dasturining menyulari bilan tanishish.....	18
8. WINRAR dasturida fayl va kataloglarni arxivlash.....	24
9. Fayllarni arxivlash va viruslardan Himoyalanih.....	28
III. XULOSA.....	35
IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	38

Kirish

Respublikamiz 1991-yil o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng davlatimiz va uning fuqarolari oldida turgan birdan – bir vazifa, vazifa bo'lganida xam qoyat mas'uliyatli vazifa shu ediki: qo'lga kiritilgan ushbu mustaqillikni mustaxkamlash, uni qo'ldan chiqarmaslik xamda davlatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga qoshilishiga erishish.

Bu borada davlatimiz raxbari O'zbekiston respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov qator vazifalarni belgiladi va istiqbolli rejalar ishlab chiqdi.

Barchaga ma'lumki respublikamiz axolisining yarmidan ko'pini asosan yoshlar tashkil qiladi. Demak davlatimizning ertangi kuni ,uning istiqboli , rivojlanishi va yuksalishi o'z-o'zidan yoshlarga boqliq. Shuning uchun xam respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng :ishlab chiqarishni rivojlantirish va axolini ish bilan taminlash, yosh oilalarni yoki bir xovlida istiqomat qilayotgan bir necha oilalarni er uchastkalari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi va agrar soxani rivojlantirish , etishtirilayotgan xom ashyoni o'zimizda qayta ishlash va tayyor maxsulot xoliga keltirish kabi qator masalalar bilan birga ta'limni islox qilish va uni rivojlantirish masalasi xam muxim etib belgilandi. SHu borada respublikamizda ta'lim soxasida amalga oshirilayotgan tub isloxatlar ,O'zbekiston Respublikasining “ta'lim to'qrisida”gi qonuni ,”Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta'lim

tizimidagi o`quv muassasalari pedagoglari va talabalari oldiga muxim vazifa qo`ydi. SHu bilan birga jamiyatimizni axborotlashtirish va avtomatlashtirishga ishlab chiqarishda yangi texnologiyalardan foydalanishga o`tila boshladi. Bu so`zlarning isboti o`laroq davlvtimiz axborot va axborotlashtirish soxasida bugungi xolatiga ega bo`ldi.

Jamiyatimiz bugun XXI-asrga qadam qo`ydi. Yangi asr bu butun jaxon tomonidan "AXBOROT VA AXBOROTLASHTIRISH" asri deb e`lon qilindi. Demak biz bu soxadagi ishlarimizga yanada chuqurroq kirishishimiz va bu soxaga e`tiborni yanada kuchliroq qaratishimiz zarur. XX –asrda komp`yuter va komp`yuter texnikasi shu darajada rivojlandiki insoniyatning u kirib bormagan biror bir turmush soxasi yoki faoliyati qolmadi. Komp`yuter texnikasi insonlar turmush tarzini engillashtirdi . Uning oqirini engil qildi. Xattoki avtomobil` yoki pochta xizmati yaratilganda ular insonlar uzoqini yaqin qilgan bo`lsa , komp`yuter texnikasi va internet yaratilgach , insonlar uzoqi yanada yaqin bo`ldi. Bugun biz o`z uyimizda yoki ish joyimizda o`tirib dunyoning u tarafidagi yaqinlarimiz bilan suxbatlashishimiz, ularning xolidan xabardor bo`lishimiz mumkin. Buning uchun esa bizdan deyarli vaqt talab etilmaydi go`yoki biz o`zimizni ular bilan yuzma-yuz o`tirib suxbatlashayotganday xis qilamiz. Bularning barchasi bir tarafdin olib qaraganda mo`jizaning o`zginasidir. Bularning barchasi XX –asrda paydo bo`lgan bo`lsa,

XXI-asrda insoniyatni bundanda ulkan, bundanda mas'uliyatli xamda ko'z ko'rib quloq eshitmagan ishlar kutmoqda.

XX-asrda komp'yuterlarning dastlabki avlodlari yaratildi ular eng sodda dasturlar asosida ishlar edi, ular yillar o'tgan sari takomillashib , mukammallashib, foydalanuvchi uchun qulaylashib bordi . Dastlabki komp'yuterlar buyruqlarga asoslangan dasturlar asosan MS DOS operatsion sistemasi asosida ishlar edi. Bugungi kunga kelib esa elektron xisoblash mashinalarining so'ngi avlodlari ob'ektga mo'ljallangan dasturlar asosida ishlaydi.

Bunday dasturlardan bugungi kunda eng ko'p tarqalgani WINDOWS operatsion sistemasidir.

Asosiy qism

WINDOWS ning yaratilish tarixi.

Microsoft korporatsiyasi 1983 yil 10 noyabrda grafikli operatsion qobiq dastur WINDOWS ishlab chiqarishga kirishganligini e`lon qildi . Ularning fikricha WINDOWS shunday dastur bo`lishi kerak ediki , u ko`p masalali , ya`ni bir vaqtda bir nechta masalani echishni ta`minlay oladigan , barcha turdagi printer va displeylar bilan ishlay oladigan , shuningdek MS DOS ilovalarini ishlatishga imkon beradigan bo`lishi lozim edi. Keyingi masalani amalga oshirish ancha qiyin bo`lib , oqibatda butun ishning bir necha oyga cho`zilishiga sabab bo`ldi. SHunga qaramay ,1983 yil noyabrda Condex ko`rgazmasiga WINDOWS ning birinchi nusxasi tayyor bo`ldi. Birinchi marta WINDOWS 1985 yil 18 noyabrda sotuvda paydo bo`ldi. Bunday kechikish firmaning xomaki maxsulot bilan bozorga chiqishni xoxlamaganligi bilan boqliq. Unga yaxshi baxo berishdi. WINDOWS muxiti o`zida “ajoyib ochiqlik,shakl almashinish va joy almashtirish , uning ustiga uncha yuqori bo`lmagan narxi va uskunalarga bo`lgan talabning kamligi “ Kabi xususiyatlarini mujassamlashtirgan deb xisoblashdi.

Keyingi paytda WINDOWS ning quyidagi versiyalari yaratildi;

- WINDOWS 2.X- 1997 yilda;
- WINDOWS 3.0- 1990 yilda;
- WINDOWS 3.1- 1992 yilda;

- WINDOWS 3.11 - 1993 yilda;
- WINDOWS NT - 1995 yilda;
- WINDOWS 95 - 1995 yilda;
- WINDOWS 98 - 1998 yilda;
- WINDOWS 2000 -2000 yilda;
- WINDOWS XP - 2001 yilda;

WINDOWS yordamida NC dasturi kabi fayl va kataloglar yaratish , nusxa olish , qayta nomlash , o`chirish , matnli fayllarni chop qilish , bir vaqtda bir nechta kataloglar va fayllar majmuasi bilan yaqqol grafik rejimda ishlash mumkin.shu boisdan ayni vaqtda millionlab foydalanuvchilar o`z amaliy ish faoliyatida foydalanmoqdalar.

Biz ishimiz davomida WINDOWS dasturi va unga servis xizmat ko`rsatuvchi yana boshqa qator dasturlar bilan tanishib chiqamiz.Uning imkoniyatlari va xususiyatlari bilan xam shu o`rinda tanishib o`tamiz.

WINDOWS ning imkoniyatlari.

WINDOWS operatsion tizimi quyidagi imkoniyatlarga ega.

Universal grafika – WINDOWS dasturning uskunalar va dasturiy ta`minotidan to`liq mustaqilligini ta`minlaydi, ya`ni u foydalanuvchining aniq tashqi qurilmalar bilan moslashtirish muammosini olib tashlaydi, chunki buni WINDOWS bajaradi.

Yagona interfeys – WINDOWS da foydalanuvchining muloqoti yagona , ya`ni turli dasturlar bilan ishlash qoidalari umumiy.

Moslashish – WINDOWSning boshqa dasturiy ta`minoti bilan moslashishi MS DOS ning barcha amaliy dasturlari bilan matnli muxarrirlar , elektron jadvallari ishini ta`minlaydi.

Ko`p masalaliligi – WINDOWS bir paytning o`zida bir necha masalani bajaradi , bir dasturdan boshqasiga tezlik bilan o`tish imkoniyatiga ega.

WINDOWS mavjud operativ xotiradan to`liq foydalana oladi.

Ma`lumotlar almashuvi- WINDOWS dasturlararo ma`lumotlar almashish imkoniyatiga ega. Bu maxsus Clipboard(ma`lumotlar buferi ) , yoki DDE(ma`lumotlarning dinamik almashuvi, ya`ni boshqa dastur natijalaridan foydalanish), yoki OLE(ma`lumotlardan ularni taxrirlagan xolda foydalanish) yordamida amalga oshiriladi.

WINDOWS ning ishlash shartlari.

WINDOWS ikki rejimning birida ishlashi mumkin : standart yoki 386-kengaytirilgan . ishlatiladigan rejim WINDOWS da bajariladigan mavjud dastur va uskunalarga boqliq. Standart xolatda WINDOWS protsessorning ximoyalangan rejimida ishlaydi. Kengaytirilgan rejimda esa 80386 protsessor va 16 Mbayt (WINDOWS 95) , 32 Mbayt(WINDOWS 98), 64 Mbayt(WINDOWS 2000) operativ xotira mavjud bo`lsa ishlaydi.

Arxivatorlar va fayllarni arxivlash.

Bizga fayllarni arxivlash nima uchun kerak va arxivatorlar o'zi nima va ular qanday ish bajaradi? Gap shundaki komp'yuter xotirasidagi ma'lumotlarning ko'payib ketishi turli muammolarga olib keladi. Ma'lumotlarni xajm jixatidan kichraytirish uchun arxivlash dasturlaridan foydalanish mumkin . Arxivlash natijasida bir nechta fayl , xatto kataloglar siqilgan xolda bir faylga birlashtiriladi, arxiv faylni ochish natijasida ular o'z xolatiga qaytariladi.

ARXIVLASH DASTURLARI- diskda joyni tejash maqsadida fayllar xajmini kichraytirishga imkon beruvchi dasturlar . Ular turlicha ko'rinishda ishlatilsa-da , ishlash tamoyili bir xil : fayllarda aynan takrorlanadigan o'rinlar mavjud bo'lib , ularni diskda to'liq saqlash mazmunsizdir. Arxivlash dasturlarining vazifasi takrorlanadigan shunday bo'laklarni topib , ularning o'rniga boshqa biror ma'lumotni yozish xamda ularning ketma-ketligini aniq ko'rsatishdan iboratdir . Bundan ko'rinadiki, turli fayllar uchun ularning siqilganlik darajasi turlicha bo'ladi . Masalan , matn yozilgan fayllar to'rt , besh martagacha siqilsa , rasmlarni tasvirlovchi fayllar juda oz siqiladi . Dasturlarni ifodalovchi fayllar -1% ga yaqin siqiladi. O'rtacha qilib aytganda arxivlash dasturlari fayllar xajmini 1.5-2 barobar qisqartirishga imkon beradi .

Arxivlash dasturlarining bir qancha turlari mavjud bo`lib, ular qo`llaniladigan matematik usullar , arxivlash , arxivni ochish tezligi va eng asosiysi , siqish samaradorligi bilan bir biridan farq qiladi. Arxivlash dasturlaridan etarli darajada tez va yaxshi ishlaydiganlari , PKZIP,LHARK,ARJ , RAR dasturlaridir.

Arxiv fayl yagona faylga birlashtirilgan bir yoki bir necha faylning siqilgan xoldagi ko`rinishi bo`lib , undan kerakli xollarda fayllarni dastlabki ko`rinishda chiqarib olish mumkin . Arxiv fayli undagi fayllar nomlarini ko`rsatuvchi mundarijaga ega bo`ladi. Arxivda joylashgan xar bir fayl xaqida ma`lumot beruvchi mundarijada quyidagilar joylashgan bo`ladi:

- fayl nomi;
- fayl joylashgan katalog xaqida ma`lumot;
- fayl o`zgartirilganligini ko`rsatuvchi sana va vaqt;
- faylning diskdagi , arxivdagi o`lchami parametrlari.

PKZIP/PKUNZIP va ARJ dasturlari arxiv fayllarining nomlari , odatda quyidagi kengaytmalarga ega bo`ladi:
zip-pkzip/pkunzip dasturlari arxiv fayllari uchun;
arj-arj dasturi arxiv fayllari uchun .

Fayllarni arxivlash va arxiv fayllarni ochish.

YUqorida tilga olingan arxivlovchi dasturlar bilan qisqacha tanishamiz.

ARJ arxivlovchi dasturi yordamida biror faylni masalan matnli faylni arxivlashni ko`raylik: agar MATN katalogidagi fayllarni arxivlash lozim bo`lsa,

Arj a matn

Ko`rinishida buyruq beriladi.

Bu erda Arj arxivlash dasturining nomi, a- "add" (qo`shimcha qilmoq) so`zidan olingan arxivni tuzish yoki mavjud arxivga fayllarni qo`shimcha qilish amalini anglatuvchi ko`rsatma , matn esa xosil qilinadigan arxiv faylning nomi . Mazkur buyruq berilgandan so`ng fayllarni arxivga joylashtirish boshlanadi va bunda xar bir faylning nomi xamda uning siqilish foizi ko`rsatib boriladi.Dastur ishi tugagandan so`ng, katalogdagi barcha fayllarni o`z ichiga olgan matn.arj arxiv fayli xosil bo`ladi ,bu erda fayl nomidagi .arj kengaytmani arxivlash dasturining o`zi qo`shadi.

Bu vazifalarni PKZIP arxivlash dasturi yordamida xam bajarish mumkin . PKZIP arxivlash dasturi uchun mazkur buyruq quyidagi ko`rinishda bo`ladi:

Pkzip-a matn .

Bu buyruq mos ravishda matn . zip faylini xosil qiladi. YUqoridagi buyruqlar kiritilgach , ular ko`rsatilgan amallarni bajarishga kirishadilar . ekranda arxivga kiritilayotgan fayllar nomlari

tasvirlanadi. Xar bir faylni “siqishda ” faylning qayta ishlangan foizi yoki bu jarayonni ko`rsatuvchi gorizontal chiziqcha xosil bo`ladi. Faylni arxivlash tugatilgach, uning qarshisida siqilish darajasi xaqida xabar chiqariladi. SHuni ta`kidlash kerakki , ARJ va PKZIP dasturlari siqilish darajasi xaqidagi xabarni turli xilda ko`rsatadi. Masalan , agar dastlabki faylni 10 marta “siqilsa” ARJ dasturi ishi tugagach 10% ini (“siqilgan ” fayl uzunligini fayl uzunligiga nisbati) , PKZIP esa 90% ini (faylni arxivga joylashtirishda necha foizga siqilishini) ko`rsatadi.

Arxivni ochish, yani undagi fayllarni olish uchun yuqoridagi buyruqda a xarfi o`rniga e (“extract” so`zidan olingan – “izvlech” – chiqarish) xarfi qo`yiladi.

Arj e matn yoki Pkunzip matn

Arxivlarni ochishda faqat oxirgi buyruqda Pkzip o`rniga Pkunzip dasturi bajarilishini ko`rishimiz mumkin .

Mazkur buyruqlarning bajarilishida fayllar arxivdan ketma –ket chiqariladi va joriy katalogga yoziladi . Navbatdagi biror faylni arxivdanchiqarishda mazkur katalogda shu nomdagi fayl mavjud bo`lsa , komp`yuter “eski faylni ustiga yozaymi ?” deb so`raydi. Agar savolga “xa” deb javob berilsa eski fayl o`rniga yangisini yozadi , aks xolda “arxivdan chiqarilayotgan faylga yangi nom berish kerakmi?” deb so`raydi. Kerak bo`lsa, qanday nom berilishi xam ko`rsatiladi.

Endi biz yuqoridagilarni WINRAR dasturida bajarishni ko`rib chiqish orqali WINRAR dasturi bilan to`laroq tanishib xam chiqamiz.

WINRAR bu WINDOWS uchun yaratilgan RAR arxivatorining 32-razryadli versiyasi , arxivlarni xosil qilish va ularni boshqarishni qulay vositasi. Turli operatsion sistemalar uchun RAR arxivatorini bir nechta versiyalari mavjud. Bu operatsion sistemalarga Windows , Linux , FreeBSD , dos , js/2 , MacOS lar kiradi.

WINDOWS uchun RAR ning ikkita varianti mavjud :

- 1.Foydalanuvchi uchun grafik muloqotli versiya(GUI) –WINRAR.exe
- 2.RAR.exe –konsol versiyasi , buyruqlar qatori va matnli rejimda ishlovchi dasturlar uchun .

WINRAR ning ba`zi bir ahamiyatli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1.RAR va ZIP2.0 arxivini to`liq qo`llab quvvatlaydi;
2. Berilganlarni siqishda yuqori effektga ega ekanligi ;
3. Buyruqlar qatori interfeysidan foydalanish imkoniyati;
4. Boshqa formatdagi arxivlar bilan ishlashi(ACE; ARJ;BZ2; CAB; GZ; ISO);

5. Ko`p tomli arxivlarni qo`llab quvvatlaydi;
6. SFX ni turli modullari yordamida oddiy va ko`p tomli arxivlarni xosil qilish;
7. Fizik zararlangan arxivlarni qayta tiklash imkoniyati;
8. Qayta tiklash uchun maxsus tomlarni yaratish va foydalanish imkoniyati , ko`p tomli arxivlarni zararlangan yoki etishmayotganlarini qayta tiklashga ruxsat berish ;
9. Fayl nomlarida YUnikod kodlashtirishni qo`llab quvvatlaydi;
10. Boshqa qo`shimcha funktsiyalarga , masalan ma`lumotlar va fayllar nomlarini arxivda shifrlari , arxiv muzokaralar qo`shish , xatolar protokolini ko`rsatish va xokazolarga ega ekanligi;

Arxivga kiritilishi mumkin bo`lgan fayllar soni , foydalanilayotgan xotira xajmidan joy egallaydi. Bitta faylni RAR arxiviga qo`shish uchun taxminan 128 Bayt xotira kerak. Masalan , bir million faylni arxivlash uchun 128 Mbayt tezkor xotira zarur bo`ladi. WINRAR milliontadan ortiqroq fayllar bilan ishlashda tekshirib ko`rilgan .RAR arxivini yoki ixtiyoriy RAR arxiv faylini maksimal o`lchami amaliyotda cheklanmagan bo`lib , u 8 eksabayt ni tashkil etadi(bu 858 934 591 Gigobayt yoki 9 223 372 036 854 775 807 baytga teng) . e`tibor bersak 4 Gigabayt o`lchamdan yuqori arxivlarni xosil qilish faqatgina NTFS fayl sistemali diskларidagina yaratish mumkin . Xattoki bmmuncha eski , faylli sistemalar xam bunday xajmli fayllarni qo`llab quvvatlay olmaydi. ZIP arxivini yoki ixtiyoriy ZIP arxiv faylini

o'lchami 2 Gigabaytdan oshmaydi. RAR arxiv formati butunicha , murakkab muammolarni xal qilishda katta sondagi fayllardan foydalanishdagi murakkab muammolarni xal qilishga yaxshi loyixalangan.

WINRAR dan tashqari yana RAR.exe fayli xam mavjud . Bu xam WINDOWS uchun RAR ning 32-razryadli versiyasi , lekin u faqat buyruqlar qatori interfeysi va matnli rejimda foydalaniladi. RAR ning matnli rejimda ishlovchi versiyasi

DOS da foydalanish uchun (VAT va SMD) fayllar paketini chiqarish uchun qo'llashda qulay . U WINRAR ga qaraganda buyruqlar qatorini ko'plab buyruqlari va xolatlarini qo'llab quvvatlaydi .


WINRAR dan ikki xil xolatda foydalanish mumkin :

WINDOWS ni standart muloqotli grafik qobiq rejimda va buyruqlar qatorida ishlaydi.

WINRAR ni grafik qobiqli rejimda foydalanish WINRAR belgisi ustida sichqoncha tugmasini ikki marta bosish bilan yoki PUSK\PROGRAMI\ WINRAR buyruqlari ketma ketligida bo'lishi mumkin.



Shundan keyin biz WINRAR ish stolini ko`rishimiz mumkin uning asboblari paneli tugmalari va menyularidan foydalanib fayllarni arxivlashimiz yoki arxiv fayllarni ochishimiz mumkin. SHu bilan birgalikda menyular yordamida fayl va kataloglar ustida turli xil ishlarni olib borishimiz xam mumkin bo`ladi .



WINRAR ni buyruqlar qatori rejimida foydalanish uchun PUSK\PROGRAMMI\STANDARTNI\KOMANDNAYA STROKA buyruqlari yoki PUSK\VIPOLNIT dialog oynasini ochishimiz kerak. Demak WINRAR ish stoli quyidagicha ko`rinishga ega ekan. Dastur sarlavxasi , menyular qatori, uskunalar qatori,fayl va kataloglar manzilini ko`rsatib turuvchi qator,fayl va kataloglar ro`yxati.

WINRAR dasturining menyulari

bilan tanishish

endi WINRAR dasturi menyulari bilan tanishib chiqamiz.

“FAYL” menyusi quyidagi bandlarga ega.

Открыть архив	Ctrl+O
Выбрать диск	Ctrl+D ▶
Выбрать папку	Ctrl+T
Установить пароль по умолчанию	Ctrl+P
Скопировать файлы в буфер обмена	Ctrl+C
Вставить файлы из буфера обмена	Ctrl+V
Выделить все	Ctrl+A
Выделить группу	Gray +
Снять выделение	Gray -
Инvertировать выделение	Gray *
Выход	
1 C:\...\Рабочий стол\pozimjon.rar	
2 \\Computer-02\Inbox\...A ISH.rar	
3 C:\...\Копия kurs ishi tayyor.rar	
4 C:\...\kurs\kurs ishi tayyor.rar	

Arxivni ochish
Diskni tanlash
Papkani tanlash
Parol qo`yish
Almashinuv buferiga fayl nusxasini olish.
Almashinuv buferidan faylni qo`yish.
Xammasini blokka olish.
Guruxni belgilash.
Belgilashni bekor qilish.
Belgilashni invertlash.
CHiqish .

“Komandi” menyusi quyidagi ostmenyularga ega.

Добавить файлы в архив	Alt+A
Извлечь в указанную папку	Alt+E
Протестировать файлы в архиве	Alt+T
Просмотреть файл	Alt+V
Удалить файлы	Del
Переименовать файл	F2
Печать файла	Ctrl+I
Извлечь без подтверждения	Alt+W
Добавить архивный комментарий	Alt+M
Добавить информацию для восстановления	Alt+P
Заблокировать архив	Alt+L


Fayllarni arxivga olish.
Ko`rsatilgan faylni arxivdan chiqarish.
Arxiv fayllarni testdan o`tkazish.
Faylni ko`rish.
Faylni o`chirish.
Faylni qayta nomlash.
Faylni chop etish.
.
Arxiv ma`lumotnomasini qo`shish.
Qayta tiklash uchun ma`lumot qo`shish.
Arxivni ximoyalash.

“Operatsii” menyusi ostmenyulari quyidagicha xususiyatlarni mujassamlashtirgan.


Мастер	
Проверить архив(ы) на вирусы	Alt+D
Преобразовать архив(ы)	Alt+Q
Восстановить архив(ы)	Alt+R
Преобразовать архив(ы) в SFX	Alt+X
Найти файлы	F3
Показать информацию	Alt+I
Создать отчёт	Alt+G
Тест быстродействия и надёжности аппаратуры	Alt+B

“Izbrannoe ” menyusi esa quyidagi tarkibda tuzilgan.

Usta .
Arxivlarni virusga tekshirish.
Arxiv xususiyatlarini belgilash.
Arxivlarni tiklash.
SFX arxivlari xususiyatlarini belgilash.
Faylni qidirish.
Ma`lumotni ko`rsatish.
Xisobot yaratish.
Qurilmalar ishlash tezligi va yaroqliligini tekshirish.



“Parametri” menyusi ostmenyusi quyidagi bandlarga ega.



“Spravka ” menyusi quyidagilarni mujassam etgan.


Содержание
Web-страница WinRAR
О программе...

Sozlash .
Ipport\eksport .
Fayllar ro`yxati.
Mavzular .
Protokolni ko`rib chiqish.
Protokolni tozalash.

Bu ostmenyularning ba`zilari o`z navbatida yana ostmenyularga ega. Bularga “Fayl” va “Parametri” menyulari kiradi.

Dastur mazmuni.
WINRAR
WEBSaxifasi.
Dastur xaqida.

“Fayl” menyusining “vibrat disk” menyusi quyidagi ostmenyularga ega.



Disk 3.5(A)


Lokal disk(S:).

Lokal disk(D:)

CD-diskovod(E:)

Bu buyruqlar yordamida biz o`zimizga kerakli diskni tanlashimiz mumkin .


“Parametri” menyusining “importleksport”, “spisok faylov” ,”temi”ostmenyulari o`z navbatida ostmenyularga ega.”importleksport” ostmenyusi quyidagi tarkibga ega.



Fayldan parametrlarni import qilish.

Faylga parametrlarni eksport qilish.

“Spisok faylov ”ostmenyusi quyidagi tarkibga ega.




Bu menyu yordamida xam biz fayl va papkalar ustida turli xil amallar bajarishimiz mumkin bo`ladi.


Papkalarining bir satxli ko`rinishi.

Ro`yxat .

Jadval .

“Temi” ostmenyusi tarkibi quyidagicha .






Sichqoncha tugmasini bosish bilan biz buyruqlar qatori bilan ishlovchi operatsion sistema ya`ni MS DOS muxitiga kiramiz uning ko`rinishi quyidagicha.

Mavzularni tartiblash.

To`ldiruvchi	mavzularni yuklash.
--------------	---------------------

Joriy mavzu.



WINRAR dasturida fayl va

kataloglarni arxivlash

Yuqoridagilarni ko`rib chiqqan xolda biz ularni amalda sinab ko`rish uchun biror fayl yoki katalogni arxivlab ko`raylik.

Demak birinchi bo`lib WINRAR ish stoliga kiramiz va fayl va kataloglar ro`yxatidan biror faylni masalan "Mahmudov" nomli papkani kursor yordamida belgilab olamiz va asboblari panelidagi "Dobavit" buyruqini beramiz. Natijada tanlangan papka arxivga olinadi. Arxivlashning boshqa yana bir qancha usullari ham mavjud bo`lib biz yuqorida ulardan faqatgina bittasini ko`rib chiqdik. Umuman olganda esa bu ishlarni MS DOS operatsion sistemasi yordamida ham bajarish mumkin lekin hozirda WINDOWS operatsion sistemasi biz uchun MS DOS ga qaraganda bir muncha qulayliklarga ega ekanligi sababli ham afzal xisoblanadi.

SHuning uchun ham biz bunga ehtiyoj sezmaymiz lekin bazi bir xolatlarda MS DOS dan ham foydalanishimizga to`g`ri kelib qolishi tabiiy albatta . Bu xolatlarga ehtibor bo`lmaslik zarur deb o`ylayman.

Fayllarni arxivlash va viruslardan himoyalash.

Komp'yuterlardan foydalanish jaraenida turli sabablarga ko'ra magnit disklardan ma'lumotni o'chirish eki zararlantirish mumkin. Bu magnit diskini ishdan chikishi, fayllarning noto'qri taxriri eki faylni extietsizlik okibatida o'chirilishi, eki komp'yuter virusining zarari natijasida yuz beradi. SHuning uchun foydalanaetgan fayllarning arxiv nusxasini ko'chirish va o'zgartirilaetgan fayllar nusxasini yangilab turish zarur.

Nusxa ko'chirish uchun COPY, XCOPY, xamda BASKUP, RESTORE komandalaridan xam foydalanish mumkin. Lekin bu xolda disk nusxalari uchun juda kup disketalar kerak bo'ladi. CHunki bunda nusxalar xajmi o'zgarmaydi. Masalan, 20 Mbaytli kattik diskdagi fayllar gusxasini ko'chirish uchun 360 Kbaytli 60 ta disketa kerak.

Fayllarning arxivli nusxasini yaratish uchun maxsus arxivlovchi dasturlardan foydalaniladi. Bu dasturlar arxiv disketalada joyni tejaydi va arxiv fayllardan foydalanishda qulayliklar yaratadi.

Koidaga ko'ra,arxivlovchi pragrammalar fayl nusxalarini diskda sikib joylashtiradi, fayllarni arxivdan olish va arxiv mundarijasini ko'rish imkoniyatini beradi .

Eng kup tarkalgan arxivlovchilar: ARJ, PKARC, PKPAK, PAK, PKZIP, LHRC, PKZIP va ARJ qulayrok va tezro4 ishlaydi.

SHuning uchun quyida ARJ, PKZIP va PKUNZIP dasturlarining kiskacha tafsifini keltiramiz.

Arxivli fayl bir necha fayllarni sikilgan xolda bir faylga joylashgan majmuidir. Arxiv fayl mundarijaga ega. Unda fayllar nomi, fayl joylashgan katalog nomi, oxirgi o`zgartirish faqat va sanasi, faylning diskdagi va arxivdagi xajmi va tekshirish kodi xaqidagi ma`lumot beriladi.

PKZIP/PKUNZIP va ARJ dasturlari

PKZIP/PKUNZIP, ARJ dasturlari fayllarni arxivlashtirish va ularni arxivdan qayta tiklash vazifalarini bajaradi.

Arxiv fayllarini saqlash uchun matnli axborot uchun 60-70% joy, bajariluvchi fayllar uchun 20-30% joy tejaladi. Sikishtirilishi fayl nomi qarshisida ko`rsatiladi.

Bu dasturlar arxiv fayl tashqil etish, qayta tiklash chngi fayllarini arxivga kushish, fayllarni chngi turlariga almashtirish, arxivdvn fayllarni o`chirish va fayllar ro`yxatini chiqarish imkoniyatlariga ega.

ARJ dastursi bir necha bobli arxivlar tashqil kila oladi. Bu katta xajmdagi dasturldrni disketlarga arxivlashda qulaydir.

PKZIP dastursi. ZIP,ARL esa. ARJ kengaytgichiga ega.

Misollar .

- 1) PKZIP myzIP-MYZIP. Arxivfayllash joriy katalogdagi xamma fayllarni kushish.
- 2) ARJ a myarg- MYARJ.ARJ fayliga joriy katalokdagi xamma

fayllarni qo`ushish

3) PKZIP dokfiles *dos-DOKFILES.DOS arxiv fayliga joriy katalogdagi va A:diskdagi xamma kengaytirilmasi .dos bo`lgan fayllarni qo`shish.

ARJ a dokfiles *dos a :\ *.dos-,bo`lgan fayllarni qo`shish

PKZIP -u: myare - A: MY diskdagi MYARC.ZIP faylini yangilash.Bunda arxiv faylga joriy katalogdagi fayllar quyidagi shartlar asosan qo`shiladi.

-agarda joriy katalogdagi biror bir fayl arxiv faylida bo`lmasa;

-agarda joriy katalogdagi fayl arxiv faylida xam bo`lsayu

faqat uning o`zgartirilgan vaqtni keyingi vaqtini ko`rsatgan bo`lsa.

A: diskdagi MYARC.ARJ faylni yangilash faqat uning o`zgartirilgan vaqtni ko`rsatgan bo`lsa.

ARJ u a: myare -

ARJ f a : myark B:**-Adiskdagi MYARK.ARJ arxiv fayliga

V:

diskning bosh katalogdagi barcha fayllarni kushish.

PKUNZIP a: archive -0- A:ARCHIVE .ZIP arxiv fayldagi
xamma

fayllarni ochish va joriy katalogka joylash.

arg e a: archive -jyo d:\-A:ARCHIVE.ARJ arxiv faylidagi
xamma fayllarni ochish va D diskning bosh katalogiga joylash, agar
diskdagi nomi bir xil fayllar bo`lsa ogoxlantirishsiz o`chiriladi.

Arxivlangan fayllar bilan ishlash

Arxivlangan fayl-bu faylning ixchamlangan, siqilgan holati. Amalda fayllar bilan ishlashda, ya'ni fayllarni bir joydan ikkinchi joyga ko`chirishda, nusxa olishda, saqlab qo`yishda, elektron pochta orqali axborot yuborishda bunday fayllar bilan ishlash zarurati tug`iladi.

Avvalo arxivlash bilan bog`liq bo`lgan asosiy tushunchalarni kiritamiz, keyin arxivlash uchun ko`p qo`llaniladigan asosiy arxivatorlar (arxivlovchi programmalar) bilan tanishamiz.

Fayllarni arxivlash - fayllarni ma'lum bir qoida asosida siqilgan, ixchamlangan holatda diskda saqlash demakdir. Arxivlash qattiq disk ishdan chiqishi yoki faylning tasodifan o`chirilishi sodir bo`lgan hollarda joriy faylni qayta tiklash uchun yordam beruvchi vosita sifatida ham qo`llaniladi. Arxivlash BACKUP paket programmasi orqali ham (Win95 muhitida) amalga oshiriladi. Bu programma haqidagi to`la ma'lumotlarni spravka bo`limidagi «fayllarni arxivlash» kalit so`zli komanda orqali olish mumkin.

Umuman arxivlash - bu uzoq muddat saqlanuvchi fayllar, kam qo`llaniladigan, eski xujjatlar, har xil materiallar, adabiy va ilmiy maqolalar, rasm va boshqalarni saqlash uchun qo`llaniladi. Arxiv bir qancha qismlardan iborat bo`lishi va unda har bir fayl alohida ko`rinishda saqlanishi mumkin. Bunday arxiv fayllari ko`p tomli deb

ataladi. Shunday arxivlardan katta hajmli ma'lumotlarini qismlarga bo'lib disketalarga sig'adigan, qulay ko'rinishga keltirish uchun foydalanish mumkin. Bunda har bir qism fayl ham arxiv fayli deb ataladi.

Arxiv hosil qilish jarayoni arxivlash (arxivatsiya) deyiladi. Siqilgan faylni eski holiga qaytarish arxivlarni ochish (razarxivatsiya) deyiladi. Arxivlashni fayllar guruhi, to'liq fayllar strukturasi bo'yicha yoki papkalar bo'yicha ham qilish mumkin. Arxivlanuvchi fayllarda papkalar ko'p bo'lsa, ularni oldin bitta papkaga yig'ib olish ishni osonlashtiradi. Elektron pochta va Internet muhitida arxivlangan holdagi ma'lumotlarni almashish bir qator qulayliklar yaratadi.

Arxivlash jarayonida ayrim fayllar juda yaxshi ixchamlanishi, ba'zi hollarda arxivlash natijasida boshlang'ich fayl 10-20 baravar siqilishi ham mumkin. Masalan, programma fayllariga nisbatan tekst va rasm fayllari ancha yaxshi ixchamlanadi.

Hozirgi kunda har xil arxivatorlar bir-biridan siqish darajasi, tezligi, foydalanishda qulayliklari, imkoniyat darajasi bo'yicha farq qiladi. Foydalanuvchi har xil turdagi arxiv fayllarini kengaytmasi bo'yicha farqlaydi. Siqish turi shu arxivning formati deyiladi.

Arxivlangan fayl arxivda qaysi fayllar borligini bildiruvchi sarlavhaga ega bo'ladi. Arxiv sarlavhasida unda saqlanuvchi har bir fayl uchun quyidagi ma'lumotlar saqlanadi:

- fayl nomi;

- fayl saqlanuvchi katalog haqida ma'lumot;
- faylning oxirgi marta qayta ishlangan sanasi va vaqti;
- faylning diskdagi va arxivdagi o'lchami;
- arxivning to'liqligini tekshirishda ishlatiladigan har bir faylning siklik tekshirish kodi.

Arxiv fayllar ham oddiy fayllar kabi nomlanadi va maxsus kengaytirmaga ega bo'ladi. Masalan, PKZIP/PKUNZIP programmalarining fayllari .ZIP, ARJ programmasining fayllari .ARJ kengaytirmaga ega bo'ladi. Ko'p tomli fayllar uchun esa arxivning davomi A01, A02 va hakazo kengaytirmalar oladi.

ZIP-formatli arxiv imkoniyatliroq hisoblanadi. Bu turdagi arxivlar PKZIP arxivatori bilan yaratiladi. Arxivni ochish uchun PKUNZIP dan foydalaniladi (PKWARE-firmasi tomonidan yaratilgan). ZIP- formatli arxiv boshqa formatli arxivlardan arxivlash jarayonining tez amalga oshirilishi va yuqori darajada siqish imkonini berishi bilan ajralib turadi.

Hozirgi vaqtda ko'p qo'llaniladigan arxivatorlardan yana biri ARJ hisoblanadi (R.Yangom tomonidan yaratilgan). Bu arxivator arxivlash uchun ham, arxivdan chiqarish uchun ham hizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ZIP va ARJlarga o'xshash formatlaydigan LHA (X.Yoshizaki) arxivatori ham mavjud.

Yana ko'p qo'llaniladigan arxivatorlardan biri RAR (YE.Roshal) hisoblanadi. Bu arxivator Norton Commander muhitida,

foydalanuvchi interfeysi yordamida amalga oshiriladi. Ammo bu arxivatordan EPda foydalanish ancha noqulayliklar tug'diradi.

Endi ko'p qo'llaniladigan ZIP va ARJ arxivatorlarini ko'rib chiqamiz.

Fayllarni arxivlash buyrug'ining umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

PKZIP holat arxiv_nomi [fayllar_nomlari] yoki

ARJ buyruq holat arxiv_nomi [katalog [fayllar_nomlari]].

Bu buyruqlarning parametrlari:

- *buyruq* parametri bitta harfdan iborat bo'lib, u *ARJ* ning bajaradigan ishini ko'rsatadi. Masalan: *A* - arxivga fayllarni qo'shish, *M* - arxivga fayllarni ko'chirib o'tkazish va h.z.

- *holat* parametri «-» yoki «/» belgilari bilan boshlanib umumiy holda quyidagilarni bildirishi mumkin:

A (Add)-hamma fayllarni arxivga qo'shish;

U (Update)-yangi fayllarni arxivga qo'shish;

F (Freshen)-arxivdagi mavjud fayllarning yangi turlarini arxivga qo'shish;

- *arxiv_nomi* - arxiv nomi (yoki to'liq nomi) ko'rsatiladi. Agar ushbu fayl mavjud bo'lmasa u yangi tashkil etiladi;

- *katalog* - ARJ arxivatori uchun fayllar joylashgan papka nomini bildiradi. Agar u berilmagan bo'lsa katalog sifatida joriy papka olinadi;

- *[fayllar_nomlari]*-arxivlanuvchi fayllar nomlari bo`lib, ular bo`sh joy (probel)lar bilan ajratilgan holda ko`rsatiladi. Bunda \* va ? belgilaridan ham foydalanish mumkin. Agar fayl nomi ko`rsatilmasa joriy papkadagi fayllarning hammasi arxivlanadi.

Misollar.

Faraz qilamiz Kurs1 degan faylni PKZIP va ARJ arxivatorlari yordamida arxivlamoqchimiz. Buni quyidagicha amalga oshiramiz

PKZIP - Kurslar Kurs1

ARJ A kurslar Kurs1

bu yerda *Kurslar* hosil qilinuvchi arxiv nomi.

Arxivni ochish uchun

PKUNZIP -Kurslar

ARJ E Kurslar

buyrug`i beriladi. ARJ programmasidagi YE buyrug`i o`rniga X buyrug`i berilsa arxivdagi fayllar ochilib, mos kataloglarga yoziladi.

Arxivdagi fayllar ro`yxatini ko`rish uchun

PKUNZIP -V Kurslar

ARJ L Kurslar

buyrug`idan foydalaniladi.

Bundan tashqari shu arxivatorlar yordamida arxivlanadigan fayllarni himoyalash maqsadida parol o`rnatish imkoniyati ham mavjud bo`lib, u quyidagicha amalga oshiriladi:

PKZIP Kurslar -sParol

ARJ A Kurslar -gParol

bu yerda -s va -g maxsus himoya belgilari va *Parol* foydalanuvchi tomonidan kiritiladigan yashirin soʻz. Parolli arxiv fayllarni ochish vaqtida ham maxsus himoya belgilari-yashirin soʻzlarni kiritish kerak boʻladi, aks holda arxiv ochilmaydi.

PKZIP va *ARJ* programmalari fayllarni avtomatik tarzda katta tezlikda va optimal darajada siqish imkonini beradi. Agar maksimal darajada siqish zarurati tugʻilganda *holat* parametrda mos ravishda -*YEX* va -*JM* holatlari beriladi.

Oxirgi yaratilgan arxivatorlar foydalanuvchi ishini yengillashtirgan holda sodda koʻrinishda amalga oshirishga qaratilgan. Shulardan NC (Norton Commander 7.0)da va koʻp qirrali Norton Navigator muhitida ham amalga oshiruvchi arxivatorlar mavjud.

Foydalanuvchi interfeyslarini oʻzida jamlagan, koʻp imkoniyatli WinZip (Nico Vfr Computing kompaniyasi tomonidan yaratilgan) arxivatori Windows 95 muhitiga moʻljallangan. Bu arxivator ishlash uchun qulay va yetarlicha universal boʻlib, u har xil formatlar bilan baravariga ishlashni amalga oshirish hamda shu kabi boshqa bir qator imkoniyatlarni ham yaratib beradi.

Norton Navigator muhitida Norton file Archive Wizard boshqaruvchisi mavjud boʻlib, bu arxivator ZIP va LZH formatli arxivlarni yaratadi. Uning yordamida bir tomli yoki koʻp tomli arxivlar

yaratish mumkin. Shuningdek o`zi ochiluvchi (kengayuvchi)
kengaytmasi EXE bo`lgan arxivlar ham yaratiladi.

XULOSA

Bugungi kunda respublikamizda olib borilayotgan ishlar birinchi navbatda insonlar ya'ni respublikamiz fuqarolarining xuquq va manfaatlarini xisobga olgan xolda ularning turmushlarini yaxshilash va rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishi uchun bir qator ishlar qilinmoqda .SHular qatorida ko'zga ko'rinarlilaridan ta'lim soxasidagi ishlarni olishimiz mumkin. Ta'lim soxasida bugungi kunda olib borilayotgan ishlar xaqiqatan xam taxsinga sazovor bo'lib, ularning isbotini ta'lim to'qrisidagi qonunning qabul qilinishi , ta'lim soxasida yangi texnologiyalarning qo'llanilishi , masofaviy ta'lim usullari , bilim olishning zamonaviy texnikaga asoslangan turlarining joriy etilishi, darsliklarning yangi avlodlarini yaratilishi, darsliklarning elektron avlodlarining yaratilishi va xokazolarda ko'rishimiz mumkin, bu kabilar barchasi ta'lim soxasining xaqiqatan xam rivojlantirishga uni yangi bosqichga olib chiqishga bo'lgan e'tibordir.

Bu xam bejiz emas albatta , nega deganda respublikamiz axolisining yarmidan ko'pini yoshlar va o'smirlar tashkil etib o'z – o'zidan respublikadagi eng katta xarakatlantiruvchi kuchni ifodalaydi. Bundan tashqari xalqning , millatning ertangi kuni , kelajagi , ravnaq topishi albatta shu yoshlarga boqliq . Aynan

shuning uchun xam bu xarakatlarning ertangi kuni va natijasi albatta ijobiy va yuksakdir deb o`ylayman .

Ta`limning yangi texnologiyalarga asoslangan yo`nalishda olib borilishi soxasida bu natijaga bosqichma –bosqich o`tilishi , ushbu bosqichlar davomida asta sekin darsliklarning yangi avlodlarini yaratish , darsliklarni elektron avlodlarini yaratish , masofaviy ta`lim asoslarini amalga oshirish ko`zda tutilgan.

Bugun duryo xamjamiyati axborot va axborotlashgan jamiyat sari qadam qo`ymoqda bu ishlarda respublikamiz xam chetda turgani yo`q albatta . Qabul qilinayotgan qonun va farmonlarning amaliy isboti xayotimizga tatbiq etilmoqda.Respublikamizning xar bir o`quv muassasalari zamonaviy komp'yuterlar va texnika maxsulotlari bilan jixozlanib ta`limning yangi bosqichiga o`tilmoqda . Xar bir talaba yoki o`rta maktab o`quvchilari xozirda zamonaviy komp'yuterlardan foydalana oladi dasturiy ta`minotlarini ishlata oladi . Ishlab chiqarishning turli soxalari xam komp'yuterlashmoqda bu esa albatta ishlab chiqarishning xam rivojlanishiga olib kelmoqda. Men xam ushbu kurs ishini tayyorlash davomida komp'yuterning bir necha yuz dasturlaridan biri bo`lmish WINRAR dasturi bilan chuqurroq tanishdim xamda ushbu dasturning naqadar axamiyatli ekanligini tushunib etdim . Bugun biz axborotlar asrida yashayapmiz demak o`z-o`zidan xar bir ishimizda unga duch kelimiz va undan foydalanamiz , unga extiyoj sezamiz. Ko`pincha bizga axborotlarni

bir joydan boshqa joyga olib borish extiyoji tuqiladi , yoki ularni ma`lum muddat balki bir necha yillab saqlashga , ulardan muntazam foydalanishga to`qri keladi . Axborotni bir joydan boshqasiga ko`chirishda yoki saqlashda biz tashqi xotiralar yoki saqlovchilardan ya`ni disklardan foydalanamiz. Lekin shuni unutmaslik kerakki bu qurilmalarning axborot yozish xajmi cheklangan bo`lib , ba`zan ma`lumotimiz bu qurilmalarga siqmaydi yoki tashash vaqtida ma`lumotlarning buzilishiga duch kelinidi. Bunday muammolarni esa WINRAR dasturi orqali osongina xal qilish mumkin. Biz WINRAR dasturi orqali ma`lumotlarni arxivlaganimizda birinchidan uning xajmini siqilishiga demakki xotiradan tejashga , ikkinchidan axborotlarni tashashda ularni buzilishidan saqlashga erishamiz. CHunki arxivlangan ma`lumotlar bir joydan boshqasiga ko`chirilganda buzilishlar sodir bo`lmaydi. Buning sababi arxivlash jarayonida fayl yoki katalogdagi belgi yoki elementlarning faqat bittadani xotiraga saqlanadi xamda fayl yoki katalog ochilganda qayta tiklab beriladi.

SHu sababli xam ma`lumotlarni bir joydan boshqasiga ko`chirilganda ular buzilishdan saqlanadi. Bu esa biz foydalanuvchilar uchun faqatgina qulaylik tuqdiradi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akrom Axmedov, Norbek Taylaqov “IBM PC komp’yuterlari”
Toshkent 2001 yil
2. Qulomov S.S. va boshkalar, Iktisodiy informatika, Toshkent
1999 yil.
3. Qulomov S.S. va boshkalar «Axborot texnologiyalari va
tizimlari», Toshkent 2000 y.
4. M.Ikromov «Avtomatlashtirilgan boshkarish sistemalari»
Toshkent “ O`qituvchi” - 1989y.
5. «Informatika fanidan ma`ruza matnlari» Farqona 2005y.
6. «Tizimli dasturiy ta`minot» fanidan ma`ruza matnlari, Farqona
2005y.
7. S.Qulomov, R.X.Axmedov va boshqalar «Axborot tizimlari va
texnologiyalari» Toshkent «SHarq» nashriyoti 2000 yil.